

4-burs hiri

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



Ro'yxatga olingan: № 06-BD. 60310100.2.06.

KORXONA IQTISODIYOTI

FANING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 300000- Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi: 310000- Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60310100- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Termiz - 2024

<p>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. https://president.uz/oz/lists/view/5774</p> <p>3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son.</p> <p>4. Pardayev M.Q., Aminov Z.Yu. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va uni ta'minlash yo'llari. Samarqand, "Zarafshon", 2008</p> <p>5. Martin Ricketts. The Economics of Business Enterprise. An Introduction to Economic Organisation and the Theory of the Firm. UK, London, Edward Elgar Publishing, 4th Edition. 2019, -680 pp.</p> <p>6. Волкова О.И., Девяткина О.В. Экономика предприятия. Учебное пособие. - М.: ИНФРА-М, 2012. - 601 стр.</p> <p style="text-align: center;">Internet saytlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali 2. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti 3. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 	<p>10. Fanning o'quv dasturi Termiz davlat universitetida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Fan/modul uchun mas'ullar: B.E.Turayev - TerDU "Iqtisodiyot" kafedrasini mudiri, PhD. N.J.Nurmatov - TerDU "Iqtisodiyot" kafedrasini katta o'qituvchisi G.X.Egammazarova - TerDU "Iqtisodiyot" kafedrasini o'qituvchisi.</p>	<p>11. Taqrizchilar: Termiz davlat universiteti "Raqamli iqtisodiyot, biznes boshqaruvi va ekonometrika" kafedrasini mudiri, i.f.f.d.Toshaliyeva S.T. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasini katta o'qituvchisi, i.f.f.d.Amonov M.O.</p>
--	---	---

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar
KIQB406	2024-2025	7	6
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari	
Tanlov	o'zbek	6	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama
1.	Korxonalar iqtisodiyoti	24	156
2.		156	180

I. Fanning mazmuni
Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda bozor munosabatlari sharoitida korxonalar faoliyatini tashkil etish, boshqarish, iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda rivojlantirish yo'llari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.

Fanning vazifalari quyidagilardan iborat:

- korxonalar faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rgatish;
- turli mulk shakllariga asoslangan korxonalar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rgatish;
- mamlakatimizda korxonalar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumotlar berish;
- korxonalarda mahsulotlarni ishlab chiqarish, ularni samarali taqsimlash, korxonalarda marketing faoliyati, korxonalar faoliyatining ixtisoslashuvi, korxonalar faoliyatida amalga oshiriladigan xarajatlar, mahsulot tannarxi, ularni pasaytirish yo'llari, korxonalar o'z faoliyatidan oladigan daromadlari, foydasi, ularni ko'paytirish yo'llarini, korxonalar faoliyatidagi tavakkalchilik va uni bartaraf etish yo'llari, korxonalar faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirish va rivojlantirish, korxonalarda bankrotlik holatining oldini olish yo'llarini o'rgatish.

3. **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

1-mavzu: "Korxonalar iqtisodiyoti" fanning predmeti, vazifalari va usullari
 Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida "Korxonalar iqtisodiyoti" fanning ahamiyati. "Korxonalar iqtisodiyoti" – iqtisodiy fanlarning tarkibiy qismi va boshqa fanlar bilan aloqadorligi. "Korxonalar iqtisodiyoti" fanning predmeti, vazifalari va usullari.

2-mavzu: Korxonalar faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslari. Korxonalar va uning tashkiliy bo'linmalarini boshqarish

O'zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlar tizimi. Korxonalar faoliyatiga taalluqli me'yoriy hujjatlar. Korxonalar faoliyatiga taalluqli me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish yo'llari. Korxonalar faoliyatida boshqaruv

tushunchasi va uning obyektiv zaruriyati. Korxonalarni boshqaruv xususiyatlari va tarkibiy qismi. Boshqaruv subyekti va obyekti. Korxonani boshqarishning tamoyillari, shakllari va usullari. Korxonaning boshqaruv apparati. Korxonani boshqarishda rahbarning xususiyatlari, o'rni va roli.

3-mavzu: Korxonalar faoliyatini rejalashtirish va bashoratlash

Rejalashtirishning mohiyati, asosiy tamoyillari va usullari. Korxonalarda qo'llaniladigan rejalashtirish shakllari. Korxonalar yillik ishlab chiqarish biznes-rejasi va korxonalar faoliyatini bashoratlash.

4-mavzu: Korxonaning asosiy va aylanma fondlari hamda ulardan samarali foydalanish yo'llari

Korxonalar asosiy fondlari to'g'risida tushuncha, ularning ahamiyati va turkumlanishi. Bozor munosabatlari sharoitida asosiy fondlarni shakllantirish manbalari. Asosiy fondlardan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

5-mavzu: Korxonalar mehnat resurslari, mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash shakllari

Mehnat resurslarining mohiyati va korxonalar faoliyatidagi ahamiyati. Korxonalarda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi.

Korxonalarda mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash shakllari. Korxonalarda mehnat unumdorligini oshirish yo'llari.

6-mavzu: Korxonalarda qilinadigan xarajatlar va mahsulot tannarxi.

Korxonalarda faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish yo'llari
 Korxonalarda qilinadigan xarajatlarning mohiyati va ahamiyati. Korxonalarda xarajatlarning turkumlanishi. Korxonalar mahsulotlari tannarxi haqida tushuncha, uning turlari va aniqlanish tartibi. Korxonalarda xarajatlarni tejash va mahsulotlar tannarxini pasaytirish yo'llari.

Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati va uning korxonalar faoliyatidagi ahamiyati. Korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi. Korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari.

<p>4. III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. "Korxonada iqtisodiyoti" fanining predmeti, vazifalari va usullari. 2. Korxonalar faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslari. Korxonada va uning tashkiliy bo'limlarini boshqarish. 3. Korxonada faoliyatini rejalashtirish va bashoratlash. 4. Korxonaning asosiy va aylanma fondlari hamda ulardan samarali foydalanish yo'llari. 5. Korxonalarining mehnat resurlari, mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash shakllari. 6. Korxonalarda qilinadigan xarajatlar va mahsulot tannarxi. Korxonalarda faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish yo'llari. Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada interfaol usullar yordamida o'tilishi, mavzularga mos keluvchi pedagogik texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.</p>	<p>5. IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar. Mustaqil ta'lim ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari o'quv dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriq savollarini o'z ichiga oladi. Mustaqil ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni, o'qishning interfaol usullarini qo'llash talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish tizimli tarzda, ya'ni uzluksiz va uzviy ravishda amalga oshiriladi. Talaba olgan nazariy bilimni mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirishi uchun mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rish kerak. Mustaqil ta'limning turli shakllari mavjud bo'lib, unda talaba o'qituvchi rahbarligida fan bo'yicha yangi bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ijodiy faoliyatni amalga oshira oladi. Ushbu shakllarga quyidagilar tegishlidir: – tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish; – maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; – talabalarining o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish; – masofaviy ta'lim; – faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalanilgan o'quv mashg'ulotlari. – o'quv qo'llanmalar yordamida fan mavzularini o'rganish. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarining mavzulari: 1. Korxonada - mustaqil xo'jalik faoliyatini yurituvchi bozor subyekti.</p>
--	---

<p>2. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar. 3. Korxonalar faoliyatini tashkil etish shartlari, zarur hujjatlar. 4. Bozor munosabatlari sharoitida boshqaruvning mohiyati, maqsadi, vazifalari va tamoyillari. 5. Korxonalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda boshqaruvning asosiy funksiyalari. 6. Korxonalar faoliyatida rejalashtirishning mohiyati, ahamiyati, tamoyillari va usullari. 7. Korxonada faoliyatida qo'llaniladigan rejalashtirish shakllari. 8. Korxonada faoliyatini bashoratlash va uning usullari. 9. Korxonalarda marketing faoliyatining mohiyati va ahamiyati. 10. Korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etish. 11. Korxonalarining marketing konsepsiyasi. 12. Korxonalarda tovar siyosati va uni takomillashtirish yo'llari. 13. Korxonalarda asosiy fondlarning mohiyati, ahamiyati va turkumlanishi. 14. Korxonalarda asosiy fondlarni shakllantirish manbalari, ulardan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. 15. Korxonalarda asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari. 16. Korxonalarda aylanma fondlarning mohiyati, ahamiyati va turkumlanishi. 17. Korxonalarda aylanma fondlarni shakllantirish manbalari. 18. Korxonalarda aylanma fondlardan foydalanish holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. 19. Korxonalarda aylanma fondlardan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. 20. Korxonalarda aylanma fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari. 21. Korxonada mehnat resurslarining mohiyati va ahamiyati. 22. Korxonada mehnatni tashkil etish shakllari. 23. Korxonada mehnatga haq to'lash shakllari. 24. Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarning mohiyati. 25. Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarning turkumlanishi. 26. Korxonalarda mahsulot tannarxining mohiyati va uni hisoblashning zarurligi. 27. Korxonalarda mahsulot tannarxining turlari va ularni aniqlash tartibi. 28. Korxonalarda mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llari. 29. Korxonalarda investitsiyalarning mohiyati va ahamiyati. 30. Korxonalarda investitsiyalarning turlari va ularning turkumlanishi. 31. Korxonaning investitsion faoliyati va uni amalga oshirish shakllari. 32. Korxonalarda investitsiyalarni amalga oshirish manbalari.</p>
--

<p>33. Korxonalarda investitsiyalarni amalga oshirishni yanada takomillashtirish shakllari.</p> <p>34. Korxonalar faoliyatida innovatsiyalarning mohiyati va ahamiyati.</p> <p>35. Korxonalar faoliyatida qo'llaniladigan innovatsiyalar va ularning turkumlanishi.</p> <p>36. Korxonalarda innovatsion faoliyatni yanada takomillashtirish yo'llari.</p> <p>37. Korxonalar faoliyatida narxning mohiyati va ahamiyati.</p> <p>38. Korxonalar narx siyosati.</p> <p>39. Korxonalar faoliyatida qo'llaniladigan narx turlari va ularning shakllanishini takomillashtirish yo'llari.</p> <p>40. Korxonalar joylashtirishning mohiyati va ahamiyati.</p> <p>41. Korxonalar ixtisoslashtirishning mohiyati va ahamiyati.</p> <p>42. Korxonalar ixtisoslashuv darajasi va uni takomillashtirish yo'llari.</p> <p>43. Korxonalar faoliyatida dush keladigan xafv-xatarlar va ularning turkumlanishi.</p> <p>44. Korxonalar faoliyatidagi tavakkalchilik va uni bartaraf etish yo'llari.</p> <p>45. Korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va uni tavsiflovchi ko'rsatkichlar.</p> <p>46. Korxonalar faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirish yo'llari.</p> <p>47. Korxonalarda bankrotlik holati va uning oldini olish yo'llari.</p> <p>TMI (talaba mustaqil ishi) mavzulari bo'yicha talabalar referat tayyorlaydilar va uni taqdimot qiladilar.</p>	<p>6.</p> <p>V. Fan o'qitilishidan kutiladigan natijalar (shakllanadigan kompetensiyalar).</p> <p>“Korxonalar iqtisodiyoti” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - korxonalar faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslari, korxonalaridagi ishlab chiqarish resurslari va ulardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini mavjud bo'lgan taqdiqot usullaridan foydalangan holda aniqlashni va kelajakda ularni rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish yo'llarini belgilab berishni; turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyatini rivojlantirishni; korxonalar investitsiyalarni jalb etish hamda samaradorligini oshirish yo'llarini <i>bilishi</i>; - korxonalar iqtisodiyotiga oid statistik ma'lumotlar va turli hisobotlar ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish bo'yicha; korxonalar iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlaydigan investitsiyalarning samaradorligini ta'minlaydigan xulosa va takliflarni tayyorlash bo'yicha <i>ko'nikmalarga ega bo'lishlari</i>;
---	--

<p>- korxonalar faoliyatini tashkil etish va boshqarish, korxonalarda mahsulotlarni ishlab chiqarish, ularni samarali taqsimlash, korxonalarda marketing faoliyati, korxonalar faoliyatining ixtisoslashuvi, korxonalarda mahsulot tamarxini pasaytirish yo'llari, korxonalar faoliyatidagi tavakkalchilikni bartaraf etish yo'llari, korxonalar faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari va korxonalarda bankrotlik holatining oldini olish bo'yicha <i>malakalarga ega bo'lishi kerak</i>.</p>	<p>7.</p> <p>VI. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • kichik guruhlarda ishlash; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni yechish.
<p>8.</p> <p>Fanga oid nazariy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oralq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishini topshirish.</p>	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p>
<p>9.</p> <p>VIII. Fan bo'yicha adabiyotlar va axborot manbalari.</p> <p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ro'ziyeva D.I. Korxonalar iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. -T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2022, -268 b. 2. Shodmonov E.Sh., Bababekova D.Sh., Tursunov B.O. Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. Darslik, -T.: "Iqtisod-Moliya", 2020, -528 b. 3. Abdugarimov B.A. va boshqalar. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik, -T.: "Fan va texnologiya", 2013, -368 b. 4. Muratov R.S., Djalalova I.A., Oripov S.Sh. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik, -T.: "Iqtisodiyot", 2011, -500 b. 5. Mahmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jam'armasi nashriyoti, 2004, -208 bet. <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. "O'zbekiston" NMIU, 2021.-464 b. 	